2. Thomson A. J, Martinet A. V. “ A practical English Grammar “ Oxford – 1979.
3. L. Jurayev, M Abdullayeva, H. Tuhtarova “ Fly High “ O’qituvchi “ – 2002.
4. Xristorojdestvenskaya L. P “ Basic English in Practice “ Minsk – 1997.
5. N. Eshxojayeva “ Teaching English Grammar “ Toshkent – 2004.

**Tests**

Choose the correct form.

1. We stopped … Kokand, then drove … Ferghana.
   A) in / from  B) from / on  C) for / near  D) from / to  E) in / to
2. The pupils are getting ready … the exams … school.
   A) for / to  B) of / by  C) of / for  D) for / at  E) of / on
3. Peace loving people are … war all … the world.
   A) against / over  B) for / over  C) of / for  D) to / of  E) over / against
4. The president … Uzbekistan pays great attention … the education of the youth.
   A) in / of  B) of / to  C) to / to  D) to / of  E) by / of
5. This is the best present … a girl or a boy who likes … drawing and painting.
   A) to / of  B) for / to  C) for / of  D) for / at  E) for / -

**Mavzu: Sanoq sistemalari**

**Darsning texnologik xaritasi**

| | |
|---|---|
| Mavzu | Sanoq sistemalari |
| Maqsad va vazifalar | Darsning maqsadi Sanoq sistemalari haqida o`quvchilara tushuncha berish. Darsning ta’limiy vazifasi: o‘quvchilarga Sanoq sistemalari haqida tushunchalar berish nazariy topshiriqlar orqali bilim berish va ko’nikmalar hosil qilish. |

| | |
|---|---|
| | Darsning tarbiyaviy vazifasi: o'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga hamda dizaynlik kasbiga yo'naltirish.<br>Darsning rivojlantiruvchi vazifasi: o'quvchilarning kompyuterdan foydalanish haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirish. |
| O'quv jarayonining mazmuni | Sanoq sistemalari haqida chuqurroq bilimlar berish. Mavzuni nazariy topshiriqlar orqali ochib berish. |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi | Uslub: Ma'ruza va amaliyotning uyg'unligi.<br>Shakl: Savol-javob. Jamoa va kichik gruhlarda ishlash.<br>Vosita: Elektron resurslar, darslik, plakatlar; tarqatma materiallar.<br>Usul: Tayyor prezentatsiya va slayd materiallari asosida.<br>Nazorat: Og'zaki, savol-javob, muhokama, kuzatish.<br>Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik reyting tizimi asosida. |
| Kutiladigan natijalar | O'quvchilar yangi bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi. Ular Axborotlar va ularning turlari, ko`rinishlari haqidagi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. |

Dars ishlanmasida interfaol uslublar uchun quyidagicha belgilashlar qo'llanilgan;
M – ma'ruza, AH – aqliy hujum, K – klaster, BST – blits-savol-test, SJ – savol-javob, MY – mashq bajarish yoki misol va masala yechish.

**Darsning blok-chizmasi**

| № | Dars bosqichlari | Vaqt | Usullar |
|---|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 minut | |
| 2 | O'tilganlarni takrorlash | 7 minut | SJ, K, BST, MY |
| 3 | Yangi mavzu ustida ishlash | 17 minut | M, AH |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 15 minut | SJ, K, BST, MY |
| 5 | Uyga vazifa | 3 minut | |

O'tilganlarni qisqacha takrorlash quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Informatika so`zining ma`nosi nima?
2. Axborotni sezish organlarimiz qaysilar?
3. Axborot uzatuvchi vositalar deganda nimani tushinasiz?
4. Axborotning xususiyatlarini sanab o`ting.
5. Axborot turlarini sanab o`ting.

**Mavzuni yoritish:**

Ma`lumki , harflardan iborat alifboni qo`llashda bir qancha qonun va qoidalarga amal qilinadi. Sonli alifbodagi belgilardan foydalanishda ham o`ziga xos

qoidalardan foydalaniladi. Bu qoidalar turli alifbolar uchun turlicha bo`lib, mazkur alifboni kelib chiqch tarixi bilan bog`liq Sonlar sistemasidagi raqamlar soni shu sistemaning asosi deb ataladi.

Sonlar alifbosida kiritilgan belgi raqam, ular yordamida hosil qilingan belgilar sonlar deb yuritiladi.

Sanoq sistemasilari raqamlarning pozitsiyasiga bog`liq bo`lgan va raqamlarning pozitsiyaiga bog`liq bo`lmagan sanoq sistemalarga bo`linadi.

Pozitsiyon sanoq sistemalari quyidagi formulaga tushadi va shu formula yordamida yozish mumkin

$N=a_kp^k+ a_{k-1}p^{k-1}+ a_{k-2}p^{k-2}+\ldots a_1p^1+ a_0p^0$

$a_k, a_{k-1}, a_{k-2},\ldots a_0$- berilgan sonlarni tashkil etuvchi raqamlar

k –sondagi raqamlar sonidan bitta kam miqdor

Pozitsiyalik sanoq sistemasiga ikkilik, sakkizlik , o`n oltilik sanoq sistemalri ham kiradi .

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 10 lik sanoq sistemasi | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| 2 lik sanoq sistemasi | 0 | 1 | 10 | 11 | 100 | 101 | 110 | 111 | 1000 | 1001 |
| 5 lik sanoq sistemasi | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| 8 lik sanoq sistemasi | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 10 | 11 |

Jadvaldan ko`rinadiki , turli sanoq sistemalrda o`xshash sonlar bor ekan . Shu sonlarni farqlash uchun informatika $10_2$, $10_5$ , $10_8$ kabi belgilash qabul qilingan

Mavzuni mustahkamlash va yakunlash:

Darslikdagi yoki qo’shimcha savol va topshiriqlar.

Darslikdagi 1-2-mashqlar.

Avvalgi mavzular yoki qo’shimcha testlar asosida.

1. Axborot nech turi bor?

a) 5 b) 2 c) 6 d) 7

2. Axborotning xususiyatlari nechta ?

a) 2 b) 3 c) 4 d) 6

3. Sanoq sistemalar nech turli bo`ladi?

a) 5 b) 2 c) 6 d) 7

**Uyga vazifa**:

1. Mavzudagi savollarga javob topish
2. Test tuzish (10 ta va undan ortiq).

**Mavzu:** ***Qushlarning xilma-xilligi. Umumlashtiruvchi dars.***

**Darsning ta’limiy maqsadi:**

O’quvchilarning qushlar bo’limidan olgan bilimlarini umumlashtirish hamda “Raqamli diktant” yordamida qushlar turi bo’yicha olingan bilimlarini mustahkamlash.

**<u>Darsning tarbiyaviy maqsadi:</u>**

O'quvchilarni bo'lim yuzasidan o'zlashtirgan bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ularga axloqiy, psixologik, estetik, gigiyenik tarbiya berish. Tabiatga, Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otish.

**<u>Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:</u>**

O'quvchilarda hayvonot dunyosiga nisbatan estetik zavqlanish, uni asrash va muhofaza qilish hissini uyg'otish. Ularning erkin fikrlash, mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

**Dars turi:** Umumlashtiruvchi.

**Dars usuli:** Interfaol (amaliy hamkorlik).

**Dars shakli:** "Raqamli diktant".

**Darsning jihozi: "**Raqamli diktant" jadvali, tarqatma materiallar, qushlar rasmlari, qo'shimcha adabiyotlar, kadaskop va slayd, „Maktabda biologiya" jurnali, darslik, doska, mel, metodik qo'llanma,elektron darslik.

**Darsning tehnik chizmasi**

| | |
|---|---|
| *Tashkiliy qism* | *5 daqiqa* |
| *O'tgan mavzuni so'rash* | *3 daqiqa* |
| *Aqliy hujum* | *2 daqiqa* |
| *Raqamli diktant uchun* | *7 daqiqa* |
| *Guruhlarni nomlash va izohlash* | *3 daqiqa* |
| *Darsni mustahkamlsh* | *15 daqiqa* |
| *Tezkor savol o'qish* | *2 daqiqa* |
| *O'quvchilarni baholsh* | *5 daqiqa* |
| *Uyga vazifa berish* | *3 daqiqa* |

**<u>Darsning borishi</u>:**

1) Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni tekshirish, darsni belgilangan talablar asosida tashkil etish.
Vatanimizda bo'layotgan yangiliklar haqida ma'lumotlar so'rash – tabiatdagi o'zgarishlar haqida so'rash

Mavzuni doskaga yozib olish.

2) *O'tilgan mavzular* yuzasidan test topshiriqlari hamda tezkor savollar va qushlar rasmlari orqali yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini aniqlab olish, ularni baholash.

3) *Yangi dars* maqsadi, rejasi, borishi bilan o'quvchilarni tanishtirish. Bunda: Kadaskop orqali "Qushlarning xilma-xilligi" mavzusiga doir ma'lumotlar ko'rsatiladi,hamda o'tilgan mavzularni eslash uchun "Aqliy hujum" usulidan foydalanib, doskaga "Qush turkumlari" so'zi yozilib, har bir o'quvchi o'z fikrini ayta boshlaydi hamda yozib boriladi. Ya'ni

*Kaptarsimonlar* *Qizilsishtonlar* *Laylaksimonlar* *Tuyaqushlar* *Chumchuqsimonlar*

*G'ozsimonlar*




*Tovuqsimonlar*

*Pingvinlar* *Yirtqichlar*

*Yapaloqqushlar* *Tuvaloqlar* *Bulduruqlar*

Qaysi turkumga qanday qushlar kirishi qisman yozilgandan so'ng o'quvchilarga avvaldan tayyorlab qo'yilgan quyidagi jadval beriladi, har xil qushlar raqamlab chiqilgan bo'lib, ular tegishli bo'lgan turkumlarga raqamlar joylashtirib chiqilishi natijasida qaysi qush qanday turkumga mansubligini bilib olish mumkin.

*"Qushlarning xilma-xilligi" mavzusi bo'yicha qushlarning raqamlarini ular tegishli bo'lgan turkumlarga joylash*

| **№** | **Qushlar** | **№** | **Qushlar** | **Turkumlar** |
|---|---|---|---|---|
| **1** | Zag'cha | 28 | Boyo'g'li | G'ozsimonlar |
| **2** | Olaqarg'a | 29 | Ko'rgalak | |
| **3** | Ko'kkaptar | 30 | Ukki | |
| **4** | Nandu | 31 | Tovus | |
| **5** | Kaklik | 32 | Yovoyi o'rdak | Tovuqsimonlar |
| **6** | Oqqush | 33 | Burgut | |
| **7** | Kalxat | 34 | G'uyrak | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **8** | Qorayaloq | 35 | Ko'k g'oz | |
| **9** | Oq laylak | 36 | Qaldirg'och | |
| **10** | Baliqchi | 37 | Qirg'iy | Kaptarsimonlar |
| **11** | Kurka | 38 | Emu | |
| **12** | Kulrang g'oz | 39 | Bulbul | |
| **13** | Oq bag'ir | 40 | Suvbulduruq | |
| **14** | Sassiq po'pishak | 41 | Qirg'ovul | Laylaksimonlar |
| **15** | Chug'urchuq | 42 | Turna | |
| **16** | Musicha | 43 | Chayqa | |
| **17** | Qurlar | 44 | Mayna | Yirtqichlar |
| **18** | Miqqiy | 45 | Karqur | |
| **19** | Ko'k qo'ton | 46 | Vahmaqush | Bulduruqlar |
| **20** | Qora bag'ir | 47 | Suqsun | |
| **21** | Yovoyi bankiv tovug'i | 48 | To'rg'ay | |
| **22** | Sesarka | 49 | Hakka | Tuyaqushlar |
| **23** | Churchak | 50 | So'fito'rg'ay | |
| **24** | Tasqara | 51 | Zogorsk | |
| **25** | Chittak | 52 | Jo'rchi | |
| **26** | Zarg'aldoq | 53 | Kayra | Chumchuqsimonlar |
| **27** | Afrika tuyaqushi | 54 | Qarchig'ay | |

*Mazkur topshiriqni bajarilishini tekshirish uchun avvaldan quyidagi jadval tayyorlab qo'yiladi. Shu asosda o'quvchilar o'z jadvallarini solishtirib muhokama qiladilar.*

| **№** | **Qushlar** | **№** | **Qushlar** | **Turkumlar** |
|---|---|---|---|---|
| **1** | Zag'cha | 28 | Boyo'g'li | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **2** | Olaqarg’a | 29 | Ko’rgalak | G’ozsimonlar 6, 12, 23, 32, 35, 47 |
| **3** | Ko’kkaptar | 30 | Ukki | |
| **4** | Nandu | 31 | Tovus | |
| **5** | Kaklik | 32 | Yovoyi o’rdak | Tovuqsimonlar 5 , 11, 17, 21, 26, 31, 34, 41, 45, 51 |
| **6** | Oqqush | 33 | Burgut | |
| **7** | Kalxat | 34 | G’uyrak | |
| **8** | Qorayaloq | 35 | Ko’k g’oz | |
| **9** | Oq laylak | 36 | Qaldirg’och | Kaptarsimonlar 3, 8, 14, 16 |
| **10** | Baliqchi | 37 | Qirg’iy | |
| **11** | Kurka | 38 | Emu | |
| **12** | Kulrang g’oz | 39 | Bulbul | |
| **13** | Oq bag’ir | 40 | Suvbulduruq | Laylaksimonlar 9, 42, 43, 53 |
| **14** | Sassiq po’pishak | 41 | Qirg’ovul | |
| **15** | Chug’urchuq | 42 | Turna | |
| **16** | Musicha | 43 | Chayka | |
| **17** | Qurlar | 44 | Mayna | Yirtqichlar 7, 18, 24, 28, 30, 33, 37, 52, 54 |
| **18** | Miqqiy | 45 | Karqur | |
| **19** | Ko’k qo’ton | 46 | Vahmaqush | Bulduruqlar 13, 20, 40 |
| **20** | Qora bag’ir | 47 | Suqsun | |
| **21** | Yovoyi bankiv tovug’I | 48 | To’rg’ay | Tuyaqushlar 6, 27, 38 |
| **22** | Sesarka | 49 | Hakka | |
| **23** | Churchak | 50 | So’fito’rg’ay | |
| **24** | Tasqara | 51 | Zogorsk | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **25** | Chittak | 52 | Jo’rchi | Chumchuqsimonlar 1, 2, 15, 25, 29, 36, 39, 43, 44, 46, 48, 49, 50 |
| **26** | Zarg’aldoq | 53 | Kayra | |
| **27** | Afrika tuyaqushi | 54 | Qarchig’ay | |

**Darsni mustahkamlash**

*Bunda o’quvchilarni 3 ta guruhga ajratib olinadi va nomlanadi.*

- 1-guruh: “Oqqushlar”;
- 2-guruh: “Laylaklar”;
- 3-guruh: “Pingvinlar” deb nomlanadi, so’ng har bir guruhga 1 daqiqadan vaqt beriladi. Bunda guruhlar o’z nomlari haqida to’liq ma’lumot berish bilan birga o’z nomidagi qushi rasmini chizib, doskaga yopishtiradi, guruhlar taqdimoti tinglanadi. Shundan so’ng guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

*1-guruh uchun:* Tundrada yashovchi qushlar haqida nimalarni bilasiz?

*2-guruhga:* Shimoliy muz okeani sohillarida yashovchi qushlar haqida bilganlarigizni yozing!

*3-guruhga esa*: Tuyaqushlar haqida nimalarni bilasiz?

Savollarga guruhlar quyidagicha javob tayyorlashlari mumkin:

1-guruhning javobi:

Tundrada yashovchi qushlar masalan, oq kakliklar bilan boyqushlarning pati qalin, momiqdek yumshoq bo’ladi, patining rangi ham o’zgarib turadi. Yozda tundrani o’rdak, g’oz, loyxo’rak,oqqush singari suvda suzuvch minglab qushlar ovozi to’ldirib turadi, yerga,ko’l bo’yidagi qalin o’tlar orasiga in quradiva bola ochadi. Tundrada qora tomoq gagara ham yashaydi. Bu qush mutlaqo yura olmaydi, zo’rg’a uchadi, lekin juda chaqqon suzadi va sho’ng’iydi, baliqlar bilan oziqlanadi. Uyerda yana qizil tomoq Kazarka ham yashaydi. Ujuda chiroyli. Tundrada yirtqich qushlardan Oq quyruq burgut,lochin, oq boyo’g’li ham uchraydi. Bular mayda qushlar quyon, lamminglar bilan oziqlanadilar.

2-guruhning javobi quyidagicha bo’lishi mumkin:

Shimoliy dengiz sohillaridagi tik qoyalarida yozda son sanoqsiz har xil qushlar: chayka, kayra, gagara va boshqa qushlar in quradi. In qurgan qush galalari ko’pligidan “Qushlar bozori” deyish mumkin. Bu qushlarning hammasi suzishga juda yaxshi moslashgan: ularning bosh qismi o’tkir, tanasi esa suyri shaklda bo’ladi,

kurakka o'xshaydigan oyoqlarining panjalari orasida pardalari bor. Ular baliqlar, mayda qisqichbaqalarni tutib yeydilar. Gagara bilan kayraning pari juda qimmat turadi.

3-guruh esa quyidagicha javob berishi mumkin:

Tuyaqushlar ucholmaydi. Uning bo'yi, oyoqlari juda uzun, gavdasining og'irliga 90-100 kg, bo'yi 2,7m. ga boradi. Tuyaqush qadamining uzunligi 4,5 metrga teng, tuyaqush tuxumining og'irligi 1,5-2 kg bo'lib, tovuq tuxumining 30-40 tasiga tenglashadi. 6 haftada tuxumdan jo'ja ochib chiqadi. Tuyaqushlar asosan o't-o'lan, hasharotlar va mayda jonivorlar bilan oziqlanadi, gala-gala bo'lib yashaydi. Tuyaqush ko'p suv ichadi. Tuyaqush go'shti unchalik xushxo'r va to'yimli bo'lmasa ham Afrrikadagi ba'zi qabilalar uni iste'mol qilishadi. Tuyaqushlarning patlari adrlanadi. Avstralyada yashaydigan balandliugi 170 smga yetadigan Emu deb ataluvchi tuyaqush tutqunlikga tez ko'nikadi va odamga tez o'rganadi. Avstraliyada shavqatsiz ov qilaverish natijasida emular kamayib ketgan. Ulkan qushlardan yana biri-Janubiy Amerikada yashaydigan *Nandudir*. Nor nanduning bo'yi 1,5 mga yetadi. Bu qushning patlari to'q jigarrang yoki qora bo'lib, ko'kragida oqish dog'I bor.

Guruh vakillaridan eng ko'p javob topgan o'quvchi olqishlanadi, so'ng yuqoridagi topshiriqning javobi tinglanadi. Eng chiroyli taqdimot egasi rag'batlantiriladi. Guruhlar uchun topshiriq quyidagicha bo'ladi:

*1-guruhga:* Bu qaysi qush, unga ta'rif bering.



*2-guruhga:* Bu qushni taniysizmi, unga ta'rif bering.



*3-guruhga esa*: Bu qaysi qush, uni ta'riflang.



**O'quvchilarni baholash:** Bugungi darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi, bunda sinfning 90% o'quvchilarni baholab olishga erishiladi.

**Uyga vazifa berish:**

a) mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishish, qushlar rasmlarini chizish.

b) "Qushlar bizning do'stimiz" mavzusida kichik hikoya yozish.

c) kelgusi mavzuni o'qib kelish,

**Darsga yakun yasash:**

Mavzu bo'yicha umumlashgan fikr mulohazalarni o'quvchilarga bildirish, masalan, quyidagi "zoologiya fanidan electron darslik" diskidan "qushlarning xilma-xilligi" mavzusi haqidagi lavha namoyish etib beriladi:

***Xulosa:*** Umumlashtiruvchi darslarni yuqoridagidek o'tilishi hamda "Raqamli diktant" jadvalidan foydalanish o'quvchilar xotirasida olingan bilimlarni uzoq vaqt saqlanishiga yordam beradi.

**Mavzu: Qadimgi Yunoniston afsonalari.**

**Maqsad:** 1. Ta'limiy maqsad. O'quvchilar qadimgi yunonistonafsonalari haqida bilim oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad. O'quvchilarni irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydi

3. Rivojlantiruvchi ta'lim. O'quvchilar og'zaki nutq malakasi rivojlanadi.

**Dars jihozi:** Oq format, slayd, didaktik material.

**Dars uslublari: Xulosalash (Rezyuma)** og'zaki bayon qilish.

**I. Tashkiliy qism:** 1. O'quvchilar davomatini aniqlash.
2.Siyosiy daqiqa
3.O'quvchilarni guruhlarga bo'lish

**II. O'tilgan mavzuni so'rash:**

1. Donishmandlar kimlar?
2. Suqrot donishmandligini qanday izohlaydi?
3. Platon kim?
4. Aflotun qanday mashhur hikmati bizgacha etib kelgan?
5. Sizningcha, Suqrotning "O'z-o'zingni anglagin va bilgin" hikmati nimani anglatadi?
6. Suqrot qanday nuqsonlarni tanqid qiladi?




Savollarga javoblarni umumlashtirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**Reja:**

1. Yunon afsonalari

2.Olamni yaralishhi haqida afsona.

3. Yunonlarning rivoyatlari

4. Afsonalarning ahamiyati

Yunon afsonalari – xudolar va bahodirlar haqida rivoyatlarning qahramonlari har xil titanlar (xudalardan tug'ilgan qudratli pahlovonlar), yovuz maxluqlar, sirenalart (yarim qush, yarim ayollar), kentavrlar (yarim otlar, yarim odamlar), sikloplar (peshonasida bitta ko'zi bo'lgan afsonaviy mavjudotlardir. Afsonalar (yunon tilida "mif") mamlakat tarixidagi qadimgi davr haqida ko'p narsalar bilishga imkon beradi. Ular Olamning yaratilishi, Yer yuzida hayot va odamning paydo bo'lishi, qahramonlar jasorati va dengiz sayohatlari haqida hikoya qiladi.




Yunon afsonalari rang-barang va qiziqarlidir. Olam va xudolarning kelib chiqishi haqidagi afsona ham maroqli. Avvalamboshi Yer va Osmon- Geya va Uran bunyod etilgan. Ular Olamni boshqaruvchi titanlarni dunyoga keltirdilar, Olimp tog'ida yashovchi xudolar ularni taxtdan ag'darmaguncha hukmronlik qilganlar.

Afsonalarda aytilishicha, azalda Yer hamma tomonidan dengiz bilan o'ralgan edi. Dastlab ularning hukmdori Okean degan titan bo'lgan. Ulkan osmon gumbazi Yerning bir chekkasida turguvchi Atlas degan titan yelkalariga suyanib turardi.

Yunonlarning rivoyatlari Gerakl, Axilles, Tesey va Ayaks singari bahodir qahramonlar jasorati haqida naql etadi. Ularning barchasi matonat, kuch-qudrat va aql-zakovat kabi fazilatlarga ega bo'lgan. O'n ikki jasorati tufayli Gerakl Olimp tog'idagi xudolar saltanatida faxrli o'ringa ega bo'lgan ekan.

**IV. Mustahkamlash:**

Xulosalash (Rezyume) metodi

| Afzalligi | Savol | Kamchiligi |
|---|---|---|
| 1. Odamalarni birlashishga, e'tiqodini shaklantiradi | Yunoniston afsonaalri haqida | 1. Turli afsonalar odamlarni aldab keldi |
| 2. Ma'lum qonun-qoidalar bilan odamlarni tarbiyalaydi | | 2. Ko'proq afsonalar hukumdorlarni himoya qilgan |
| 3. Turli afsonalar olami haqidagi bilimlarni rivojlartirdi | | 3. Odamlarda dunyoni bilishdagi intilishlarini chekladi |
| 4. Odamlarni jasorat va qahramonlikka chorlaydi | | 4. Tabiat hodisalaridan qo'rqanlar |

**Guruhlar ishini taqdimotidan so'ng:**

**V. Yakuniy qism:** 1. O'quvchilar fikrini xulosalash

2. Rag'batlantirish, baholash

3. Vazifa; ": Qadimgi Yunoniston afsonalari " mavzusini o'qib kelish.

**Darsning texnologik xaritasi.**

**Mavzu:** Qadimgi yunon afsonalari
**Kalit so'zlar**: Qadimgi yunon afsonalari, rivoyatlar.

| ***Dars jarayonida amalgam oshirilgan ishlar*** | |
|---|---|
| Metod | Xulosalash (Rezume) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Shakl | Induvidual guruhlarda ishlash | | |
| Vosita | Didaktik materiallar | | |
| Nazorat | O'g'zaki savol-javob, o'aro o'z-o'zini nazorat qilish | | |
| Baholash | Rag'batlantirish | | |
| ***Darsning maqsadi va vazifalari*** | | | |
| Ta'limiy | O'quvchilarga qadimgi yunoniston afsonalari haqida tushuncha berish | | |
| Tarbiyaviy | O'quvchilarda do'stona munosabat shakllanadi | | |
| Rivojlantiruvchi | Mustaqil fikrlash va xarita bilan ishlash malakasi rivojlantirish | | |
| ***Dars yakunida kutilayotgan natija*** | | | |
| Bilim | Qadimgi Yunoniston afsonalari: haqiqat va uydirma haqida bilib oladi | | |
| Ko'nikma | Yunoniston tarixi haqida to'liq bilib oladi | | |
| Malaka | Mustaqil fikrlash va xarita bilan ishlash malakasi egallaydi | | |
| ***Dars jarayoni va bosqichlari*** | | | |
| | **Ish mazmuni** | **Metod** | **Vaqt** |
| 1. Tashkiliy qism | Davomatni aniqlash va xabarlar bilan tanishish, guruhlarga bo'lish. | Og'zaki bayon | 3-daqiqa |
| 2. O'tgan mavzuni so'rash | O'rganilgan mavzuni yozadi va izohlaydi | "Zinama-zina" | 16-daqiqa |
| 3. Yangi mavzu bayoni | Yangi mavzuni tushuntirish | Og'zaki bayon | 7-daqiqa |
| 4. Mustahkamlash | Yangi mavzuni o'zlashtirish | "T sxema" | 14-daqiqa |
| 5. Yakuniy qism | Xulosalash. Baholash. Vazifa berish. | Og'zaki, rivojlantirsh | 5-daqiqa |

## MAVZU: DAVLATNING TUZILISH SHAKLI

**Metod**: Aqliy hujum, kichik ma'ruza, bahs-munozara, taqdimot.
**Vositalar (texnik va didaktik):** ma'ruza asosida tayyorlangan prezentatsiya slaydlari, doska, kompyuter, proyektor, vatman, tarqatma materiallar.

**Shakl:** Savol-javob, jamoa bilan katta guruhda ishlash.

**Kalit so'zlar:** . " Yevropa ittifoqi", federativ, unitar, konfederativ

**Maqsad**:

**Ta'limiy:** Davlatning tuzilish shakllari xaqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** Davlatning tuzilish shakllari tushunchasini o'quvchilar ongiga singdirilar ekan,davlatdagi mavjud ahloq normalari, qadriyatlar, an'analar haqida ma'lumotlar berish

**Rivojlantiruvchi:** Davlatning tuzilish shakllari haqida o'quvchi bilimlarini rivojlantirish.

**Kutilayotgan natijalar:**

**Bilim**: Davlat va huquq asoslari fanini o'zlashtirishda davlatning tuzilish shakllarining o'rni va ahamiyati haqida bilimga ega bo'ladilar.

**Ko'nikma**: Davlatning tuzilish shakllari tushunchasi bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi.

**Malaka:** Davlat va huquq asoslari fanida davlatning tuzilish shakllari ahamiyati haqida malakalarini oshiradilar.

**Dars jarayoni va uning bosqichlari:**

**1-bosqich: Tashkiliy qism.**

Sinf darsga tayyorlanadi, yo'qlama qilinadi, ma'ruza mavzusi va maqsad e'lon qilinadi. Hafta yangiliklari bilan tanishtiriladi. (3 minut )

**2-bosqich: Aqliy hujum.**

O'quvchilarga mavzuga oid savol berish yo'li bilan ulardagi bo'shliq aniqlanadi, fikrlari jamlanadi. (5 minut )

1. Davlatning tuzilishi jihatidan qanday shakllarini bilasiz?
2. Bizning davlatimiz qanday shakldagi davlat va uning ijobiy tomonlari nimada?
3. Rossiya Federatsiyasining nima uchun bunday nomlanishi xaqida hech o'ylab ko'rganmisiz?
4. "Yevropa ittifoqi" haqida hech eshitganmisiz?

**3-bosqich: Yangi mavzuning bayoni:**

**REJA:**

**1.Tuzilish shakllari haqida.**

**2. Unitar davlatlar.**

**3. Federativ davlatlar.**

**4. Konfederativ davlatlar.**

Davlatlar tuzilish jihatidan oddiy **(unitar)** va murakkab **(federativ, konfederativ)** bo'lishi mumkin.
**Unitar** davlatda butun bir mamlakat miqyosida umumiy tizimga ega bo'lgan qonunchilik, ijroiya va sud idoralari bo'ladi.
**Unitar davlatning belgilari:**

- yagona konstitutsiya, yagona qonunchilik tizimi;
- yagona armiyaga ega bo'ladi;
- yagona pul birligi;
- unitar davlatlar tarkibiy qismlar, ya'ni ma'muriy-hududiy tuzilmalarga ega;

Unitar davlatdan farqli o'laroq federativ davlat murakkab davlat tuzilmasi hisoblanadi. Federativ davlat bir necha davlatlarning birlashuvidan hosil bo'ladi. Ularning subyektlari shtat, o'lka, respublika, amirliklar deb atalishi mumkun Federatsiya subyektlari o'z ma'muriy-todiidiy bolinmalariga ega.
Ushbu davlatlar o'zaro birlashganidan keyin federatsiya a'zolari hisoblanib, asosiy hokimiyat vakolatlari federatsiyaning markaziy organiariga beriladi.

**Federativ davlatning belgilari quyidagilar:**

- federatsiya hududi uning subyektlari hududi yig'indisidan iborat bo'ladi;
- oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal davlat
- idoralariga tegishli bo'ladi;
- federatsiyaning umumiy konstitutsiyasi uning subyektlari va federatsiyaning o'zi o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni belgilaydi;

Federatsiya subyektlarining har biri alohida o'z konstitutsiyasi, o'zlarining oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi; federatsiya oliy qonun chiqaruvchi idorasi odatda ikki palatali bo'ladi. Bunda yuqori palata federatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etadi. Hozirda jahonda 20 tadan ko'proq federativ davlatlar mavjud. Shu bilan birga Federatsiya va uning subyektlari o'rtasidagi munosabatlar har doim ham ijobiy bo'lavermaydi. Buni tarqalib ketgan Sovet Ittifoqi, Chexoslovakiya, Yugoslaviya kabi federatsiyalar misolida ko'rishimiz mumkin.Hudi, davlatlar u yoki bu maqsadni ko'zlab, o'z suvereniteti va musta-qilligini saqlagan holda birlashishlari ham mumkin. U holda bunday ittifoq konfederatsiya deyiladi. Konfederasiyada yagona hudud, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Har bir davlat xalqaro huquqning teng huquqli subyekti bo'ladi.

**Konfederatsiya belgilari quyidagilardan iborat**:

- mustaqil davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun birlashadi;
- konfederatsiya mustahkam bo'lmagan tuzilma;

- yagona hudud mavjud bo'lmaydi (konfederatsiyaning hududi uning a'zolari bo'lgan davlatlar hududidan tashkil topadi);
- umumiy fuqarolik mavjud bo'lmaydi;
- konfederatsiya a'zolari undan erkin chiqish huquqiga ega bo'ladilar; konfederatsiya a'zolari ittifoq hokimiyati qonun hujjatlarini e'tirof etmaslik yoki qo'llamaslik (nulifikatsiya qilish) huquqiga ega bo'ladilar;
- konfederatsiya vakolatiga uncha ko'p bo'lmagan masalalarni hal etish kiradi;
- konfederatsiya sarmoyasi uning a'zolarining ixtiyoriy badallaridan tashkil topadi.

**Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar**

1. Tasvirga qarab "unitar", "federativ" va "konfederativ" atamalarini izohlashga harakat qiling.
2. Rossiya Federatsiyasining nima uchun bunday nomlanishi to'g'risida hech o'ylab o'rganmisiz? Bu savolga î'z fikringizni bildirishga harakat qilib ko'ring.
3. "Yevropa Ittifoqi" iborasi qulog'ingizga chalinganmi? Bu iboraning taxminiy ma 'nosini aytib berishga urinib kî'ring.
4. Vengriya, Latviya, Polsha kabi davlatlar nomlari atalganda nima uchun federatsiya yoki konfederatsiya jumlasi qo 'shilib aytilmasligining sababini aniqlashga harakat qiling.

O'zbekiston Respublikasini siz qaysi davlatlar qatoriga qo'shgan bo'lar edingiz? Nima uchun?

**4-bosqich: Mustahkamlash.** O’quvchilar uch guruhga bo’lib topshiriqlar beriladi. Birinchi guruhga unitar shakl, ikkinchi guruhga federativ, uchinchi guruhga konfederativ tuzilish shakllari to’g’risida ma’lumot berish zig-zag usuli bo’yicha o’quvchi va o’qituvchi sifatida bilimlar almashinadi. Yakunida guruhlar bir birini savol javob asosida baholaydilar.

**5-bosqich:** Ishtirok etgan har bir o’quvchi izohlangan holda baholanadi va e’tiroz bildirilmagan sharoitda jurnalga qo’yiladi.

**6-bosqich:** Uyga vazifa: Tuzilish shakllariga misollar keltiring ( davlatlar misolida) va javoblarni izohlash.

## Mavzu: Iqtisodiy bilim asoslaru fanidan murakkab mavzular bo’yicha masalalar va ularning yechimlari

### 1.Foizlar

**Ta’rif:** Berilgan $a$ soning $p$ foizi deb, shu $a$ sonining yuzdan $p$ qismiga, ya’ni

$$\frac{p}{100}\cdot a$$

ifodaning qiymatiga aytiladi.

**1-masala:** Agar siz 26000 so'mlik qurilish hom ashyosini sotib olmoqchi bo'lib uning narxini 25% tushirgan bo'lsangiz, u holda narxni qancha kamaytirgan bo'lasiz ?

**Yechish:** $26000\cdot\frac{25}{100}=26000\cdot 0{,}25=6500$ so'm.

**2-masala:** Agar sotish uchun qo'yiladigan soliq 6% ni hosil qilsa, 18000 so'mlik buyumga qancha soliq qo'yiladi?

**Yechish:** $18000\cdot\frac{6}{100}=18000\cdot 0{,}06=1080$ so'm.

**3-masala:** Aytaylik siz ko'rsatma bo'yicha tayyorlayotgan o'rik sharbatini 50% ko'proq tayyorlamoqchisiz. Agar ko'rsatma $\frac{2}{3}$ bidon shakar uchun yozilgan bo'lsa, siz qancha shakar solishingiz kerak bo'ladi ?

**Yechish:** $\frac{2}{3}+\frac{2}{3}\cdot\frac{50}{100}=\frac{2}{3}(1+0{,}5)=\frac{2}{3}\cdot\frac{3}{2}=1$ bidon.

**4-masala:** Yana 2-masalaga qaytsak. U holda sotilayotgan buyumning to'la narxi qancha bo'ladi?

**Yechish:** $18000+6\% soliq=18000+1080=19080$

Ammo buymning to'la narxini topish uchun soddaroq usul ham mavjud. Soliq qiymatini alohida hisoblab va buyum bahosiga qo'shib o'tirmasdan, buyumning bahosi 6% ga oshganini e'tiborga olish kifoya. U holda buyumning to'la narxi quyidagicha topiladi:

$$18000+0{,}06\cdot 18000=(1+0{,}06)\cdot 18000=1{,}06\cdot 18000=19080$$

Demak, miqdorni 50% oshirish uchun uni 1,5 ga, 6% ga oshirish uchun 1,06 ga, 17% ga oshirish uchun 1,17ga ko'paytirilar ekan.

**5-masala:** Do'kondagi buyumning narxi 5% arzonlashtirildi deylik. 15000 so'mlik buyum qanchaga sotiladi?

**Yechish:**

$$15000-\frac{5}{100}\cdot 15000=15000-0{,}05\cdot 15000=(1-0{,}05)\cdot 15000=0{,}95\cdot 15000=14250$$

Bu masaladan 15000 ni o'rniga ixtiyoriy sonni qo'yib, miqdorni 5% ga kamaytirish uchun uni 0,95 ga ko'paytirish kerak ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shuningdek, miqdorni 17% ga kamaytirish uchun uni 0,83 ga, ya'ni 1-0,17 ga ko'paytirish kerak bo'ladi.

**6-masala:** Aytaylik do'konda buyumlar o'z narxidan 5% arzon sotilmoqda. Ammo sotilayotgandagi soliq buyum narxining 6% ni tashkil etadi. Shuning uchun sotuvchilardan ba'zilari buyumni 5% arzonlashtirib, 6% soliqni yangi narxga qo'yib sotishsa, ba'zilari soliq pulini buyum narxiga qo'shib, so'ngra 5% arzonlashtirib sotishadi. Aytingchi, qaysi holatda buyum narxi arzonroq bo'ladi?

**Yechish:** Faraz qilaylik buyumning narxi $a$ bo'lsin.Agar uni 5% arzonlashtirsak yangi narxi $0{,}95a$ bo'ladi. Endi bu narxga o'zining 6% soliq pulini qo'shsak buyumning oxirgi narxi $1{,}06 \cdot 0{,}95a$ bo'ladi.

Ikkinchi tomondan, agar ko'rsatilgan narxga soliq pulini qo'shsak $1{,}06a$ ni hosil qilamiz. Endi bu narxni 5% arzonlashtirsak, oxirgi narx $0{,}95 \cdot 1{,}06a$ buladi. Demak, ikkala usul ham bir xil natijaga olib keldi.

**7-masala:** Besh yil davomida $A$ bankka qo'yilgan pul 60% ga ko'payadi. Lekin dastlab qo'yilgan pulga **(**barcha miqdoriga) 5% soliq solinadi (m: siz 100 000 so'm pul qo'ysangiz sizning hisobingizga 950 000 so'm qo'yiladi). Keyinchalik pullar olinayotganda hech qanday soliq solinmaydi.

Xuddi shuncha vaqt davomida boshqa bir $B$ bankda ham qo'yilgan pul 60% ga ko'payadi. Lekin bu bankdagilar dastlabki pulga soliq solmaydi. Pullar qaytib olinayotganda esa (besh yildan so'ng) barcha pulning 5% ini olib qoladi.

$A$ bankka pul qo'yuvchilar bizning bank yaxshiroq, chunki atigi 5% soliq dastlabki pulga solinadi, $B$ bankda esa miqdori ko'p bo'lgan oxirgi puldan 5% ni olib qolishadi deyishadi. Lekin $B$ bankka pul qo'yuvchilar bizning bank yaxshiroq, chunki dastlab qo'yilgan pul butunicha qoladi va ko'proq o'sadi, soliq esa keyinroq solinadi deyishadi. Ulardan qaysi biri haq deb hisoblaysiz?

**Yechish:** Agar dastlabki qo'ymoqchi bo'lgan pulingiz $a$ bo'lsa, u holda $A$ bankka qo'ygan pulingiz $0{,}95a$ bo'lib, besh yildan so'ng $1{,}6 \cdot 0{,}95\ a$ miqdorida pul olasiz.

O'sha miqdordagi pul $B$ bankda besh yilda $1{,}6a$ bo'ladi. Undan 5%i olib qolingach sizga tegadigan pul miqdori $0{,}95 \cdot 1{,}6\,a$ bo'ladi.

Demak, natijalar har ikkala bankda ham bir xil bo'lar ekan.

Ba'zi hollarda miqdorning biror kasr qismini foizlarda ifodalash to'g'ri kelib qoladi.

**8-masala:** Miqdorning to'rtdan uch qismi necha foiz bo'ladi?

**Yechish:** Ma'lumki, $\frac{3}{4}=0{,}75$ bo'lib, $a$ miqdorning to'rtdan uch qismi

$$\frac{3}{4}a=0{,}75\cdot a=\frac{75}{100}a$$ bo'ladi.

Demak, miqdorning $\frac{3}{4}$ qismi 75% bo'ladi.

**9-masala:** Agar omonat kassadagi pul 1 iyulda 80 000 so'm bo'lib, bir yildan keyin 85 000 so'm bo'lgan bo'lsa, pul necha foizga o'sgan?

**Yechish:** Pulning o'sish miqdori $85000-80000=5000$ so'm.

Demak , bu o'sishni kasrda ifodalasak:

$$\frac{\text{Osish miqdori}}{\text{Dastlabki pul}}=\frac{5000}{80000}=\frac{1}{16}$$

Endi 8-masaladagidek $\frac{1}{16}=0{,}0625$ ekanini ko'ramiz. Demak, pul 6,25% o'sgan

## 2. Murakkab foizlar va ular bilan bog'liq masalalar.

Agar biror miqdordagi pul, aytatlik $p$ so'm omonat kassaga qo'yilsa va unga boshqa tegilmasa, ya'ni boshqa pul qo'shilmasa yoki biror qismi olinmasa, u holda bu $p$ omonatga uning ma'lum foizi qo'shilib turadi. Navbatdagi foizlar avvalgi miqdor $p$ ga va qo'shilgan foydaga nisbatan ham qo'shilib boriladi.

Aytaylik, bir yilda qo'shiladigan foyda omonatga qo'yilgan pulning $a$% ini tashkil etsin. U holda birinchi yil oxiridagi foyda $p$ miqdor pul uchun $p\cdot\frac{a}{100}$ so'mni tashkil etadi. Buni yanada ixchamroq ifodalash uchun $k=\frac{a}{100}$ belgilash kiritaylik. U holda, birinchi yil oxiridagi foydani qisqacha $p\cdot k$ so'mga teng deya olamiz.

Shunday qilib, birinchi yil oxirida omonatdagi pul dastlabki qo'yilgan pul bilan foydaning yig'indisi

$$p+pk=p(1+k)$$

ga teng bo'ladi.

Endi omonatdagi pulga ikkinchi yili ham tegilmagan desak, u holda ikkinchi yil uchun qo'shiladigan foyda yangi

$$p\cdot(1+k)$$

miqdorga nisbatan hisoblanishi kerak. Shuning uchun ikkinchi yil qo'shiladigan foyda

$$p\cdot(1+k)\cdot k$$

bo'ladi. Demak, kassadagi omonatning umumiy miqdori

$$p\cdot(1+k)+p\cdot(1+k)\cdot k=p(1+k)^{2}$$

bo'ladi.

Uchinchi yil davomida keladigan foyda oxirgi miqdordan hisoblanib, u $p\cdot(1+k)^2k$ ga tengdir. Demak, uch yil ichida omonatdagi pul

$$p\cdot(1+k)^2+p\cdot(1+k)^2\cdot k=p(1+k)^3.$$

ga teng bo'ladi.

Shunday qilib, biror $n$ yildan keyin omonatdagi pul

$$p\cdot(1+k)^n$$

bo'lishi kelib chiqadi.

**10-masala:** Aytaylik omonat kassaga 15 000 so'm qo'yildi va bir yilda keladigan foyda omonatning 4% ini tashkil etsin. Agar omonatdagi pulga tegilmasa, u holda 5 yildan keyin u qancha bo'ladi?

**Yechish:** **B**elgilashga ko'ra $k=\frac{4}{100}=0{,}04$ bo'lgani uchun omonatdagi pul miqdori

$$15000\cdot(1+0{,}04)=15000\cdot(1{,}04)=18240$$

so'm bo'ladi.

**11-masala:** 1983 yil o'rtalarida yer yuzi aholisi 4,72 mlrd.dan iborat bo'lib, yillik o'sish 1,8% ni tashkil etgan. 1990 yil o'rtalariga kelib yer yuzi aholisi qancha bo'lgan?

**Yechish:** Bu masala xuddi 4,72 mlrd omonat qo'yilib, yiliga 1,8% foyda olinishi masalasiga o'xshashdir. Shuning uchun yuqoridagi mulohaza va hulosalarga asoslanib, 7 yildan keyingi aholi soni

$$4,72\cdot(1+0,018)=4,72\cdot(1,018)=4,72\cdot 1,133=5,35$$

mlrd.ga teng bo'lganini topamiz.

**Quyidagi masalada murakkab foizlarga doir teskari masala echiladi.**

**12-masala:** Agar qo'yilgan omonat ikki yilda 21% ortgan bo'lsa, u holda yillik o'sish foizi qancha bo'lgan?

**Yechish:** Aytaylik yillik o'sish $a$% bo'lsin. Odatdagidek, $k=\frac{a}{100}$ deb belgilasak. Omonatga qo'yilgan $p$ miqdor omonat ikki yilda

$$p\cdot(1+k)^2$$

ga teng bo'lib qoladi. Masala shartiga ko'ra omonat 21% o'sgan, ya'ni ikkinchi yil oxiridagi omonat $p\cdot 1,21$ so'mga teng bo'lgan.

Shuning uchun $(1+k)^2=1,21$ bo'lishi kerak. Demak,

$$1+k=\sqrt{1,21}=1,1$$

bo'lib, k=0,1 va yillik o'sish $a=100\cdot k$ yoki $a=10\%$ ekan.

## 3. Qishloq xo'jaligi va chorvachilikka oid masalalar.

Ma'lumki, har bir qishloq xo'jaligi ekini uchun o'simlikning 1ga joyda o'sishi kerak bo'lgan optimal miqdori aniqlangan bo'ladi. O'simliklarning kerakli zichligini ta'minlash uchun ekishdan oldin ekish me'yorini, ya'ni 1 gektarga qancha urug massasi ketishligini aniqlash zarur.

**13-masala:** Agar 1ga erda 6mln. bug'doy maysasi o'sishi kerakligi ma'lum bo'lsa hamda urug'likning ekish uchun yaroqliligi tekshirilganda 1000 dona urug'

massasi 40g, uruglikning tozaligi 97% va unib chiqishi 93% bo'lsa,bug'doy urug'ini ekish me'yorini aniqlash kerak bo'lsin.

**Yechish:** 1ga erga $x$ kg urug' sepilsin deylik. Shuncha bug'doy urug'i ichida $0,97x$ ni bug'doy doni tashkil etib (qolganlari begona o't urug'i yoki xas-cho'plar), bulardan faqat umumiy massasi $0,93\cdot 0.97x$ bo'lgan bug'doy unib chiqadi va bu 6mln. dona bug'doy massasiga teng bolishi kerak. Demak, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$0,97\cdot 0,93x = 0,04\cdot 6000$$

bundan ekish me'yori (normasi) gektariga 266 kg ekanligi kelib chiqadi.

**14-masala:** (Silos bostirish masalasi).

Ma'lumki, silosga bostiriladigan massa ma'lum optimal namlikka ega bo'lishi kerak. Bunday massani hosil qilish uchun esa tarkibida suv miqdori har xil bo'lgan o'simliklar ma'lun bir nisbatda aralashtirilib bosiladi.

Agar silos bostirishda namligi 75% bo'lgan 1 tonna ko'k massa hosil qilish kerak bo'lsa, namligi 85% bo'lgan va namligi 35% bo'lgan o'simliklardan qanday nisbatda olish kerak bo'ladi?

**Yechish:** Agar 85% namlikda olingan o'simlik massasini $x$ bilan belgilasak va bu holda butun ko'k massada bo'ladigan namlik miqdorini aniqlasak, ushbu tenglamaga ega bo'lamiz:

$$0,85\cdot x + 0,35(1-x) = 0,75 \Rightarrow x = 0,8t$$

Demak, nisbat 8sentner va 2 sentner bo'lar ekan.

Amalda aralashtiriladigan o'simliklar nisbatini aniqlash uchun kvadrat usuli deb ataladigan usuldan foydalaniladi.

Kvadratning chap burchaklariga aralashtiriladigan o'simliklarning namlik miqdori (% da), kvadrat markaziga esa hosil qilinadigan massa namligi (% da) yoziladi. So'ngra diagonallar bo'yicha katta sonlardan kichigi ayrilib, natijalar o'ng burchaklarga yoziladi. Hosil bo'lgan sonlar kerak bo'lgan nisbatni bildiradi, ya'ni 4:1 nisbatda bo'ladi.

Xuddi shu singari qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisobini ham aniqlashtirish mumkin. Ma'lumki, qishloq xo'halik mahsuloti o'z sifatiga qarab har xil bo'ladi. Bu hol qishloq xo'jaligi amaliyotida echishga to'g'ri keladigan ko'pgina qiziqarli masalalarni vujudga keltiradi.

**Masalan:** Xo'jaliklardan qabul qilingan sut rejaning bajarilishiga ayni joy uchun belgilangan bazis yog'likka nisbatan qayta hisoblanib keltiriladi (m: Zomin yoki Baxmal tumani maskanlaridagi yog'lilik miqdori, Mirzacho'l tumani maskanlaridagi yog'lilik miqdoridan yuqori turadi), bunda uni shuncha miqdordagi bazis yog'lili sutga tenglashtiriladiki, bu sutdan xuddi shuncha miqdordagi yog' olish mumkin bo'ladi. Ana shunday qayta hisoblash formulasi quyidagicha aniqlanadi.

Aytaylik, yog'liligi $p\%$ bo'lgan $m$ kg sut topshirilgan bolib, bu sut yo'gliligi $q\%$ bo'lgan $M$ kg sutga teng qilib olingan bo'lsin. U holda shartga ko'ra quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{m\cdot p}{100}=\frac{M\cdot q}{100}\Rightarrow M=\frac{m\cdot p}{q}$$

**15-masala:** Zomin tumani xo'jaliklaridan birining zootexnigi sog'ishning yangi texnologiyasini qo'llab xo'jalikda sog'iladigan sutning yog'liligi 3,79% ga etgani, buning natijasida xo'jalikda bir yilda sog'ib olingan sutga 111 tonna qo'shib hisoblangani haqida taftishchi ma'lumot keltirdi.Shu ma'lumotlarga ko'ra xo'jalikda haqiqatdan qancha sut sog'ib olinganini bilish mumkinmi ?

**Yechish:** Bu masaladagi muhim shart maskanning ko'rsatilishidir. Ko'rsatmadan Zomin tumani uchun sutning bazis yog'liligi 3,6% qilib belgilanganligini topamiz. Endi haqiqatdan sog'ib olingan sut miqdorini $x$ bilan belgilab, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$3{,}79\cdot x=3{,}6\cdot(x+11)\Rightarrow x\approx 2103$$

tonna bo'lganligini topamiz.

**16-masala:** Targ'il zotdor sigirlar orasida Shohdor laqabli sigir yog'liligi 3,88% bo'lgan 10074 kg sut, Malla laqabli sigir esa yog'liligi 3,5% bo'lgan 10260 kg sut berdi. Bu sigirlardan qaysi birini rekordchi deyish mumkin?

**Yechish:** Har qaysi sigirdan sog'ib olingan sut tarkibidagi yog' miqdorini topish natijasida Shohdorning mahsuldorligi ortiqligini aniqlab, shu sigirni rekordchi deb hisoblash mumkin.

**17-masala:** Agrotexnika talablariga ko'ra donni uzoq vaqt saqlash uchun 14% gacha namlik bilan (kondicion holat) to'kib qo'yiladi. Agar yangi o'rib-yig'ib olingan donning namligi 24% bo'lsa, uni kondicion holatgacha quritganda donning massasi necha foizga kamayadi ?

**Yechish:** Faraz qilaylik, $m$ - yangi o'rib-yig'ib olingan don massasi bo'lsin, undagi quruq modda miqdori $0{,}76m$ ga teng. Bu quruq modda kondicion holatdagi don masssining 86% ni tashkil etadi. Shuning uchun donni quritilgandan keyingi massasi $\frac{76}{86}\cdot m$ bo'ladi, demak, uning massasi $\frac{10}{86}\cdot m$ ga kamayadi, bu esa yangi o'rib-yig'ib olingan don miqdorining massasi

$$\frac{10}{86}\cdot 100\% \approx 11{,}6\%$$

ga kamayganligini bildiradi.

**18-masala:** Uzumdan mayiz tayyorlanganda uning namligi $a$ dan $b$% gacha kamaygan. Uzumning massasi necha foizga kamaygan?

**Yechish:** Agar uzumning dastlabki massasi $m$ bo'lsa, undagi quruq modda

$$\frac{m\cdot(100-a)}{100}$$

ga teng bo'ladi. Bu quruq modda qurigan uzum (mayiz) massasining (100-b)% ga teng. Shuning uchun tayyor bo'lgan mayiz massasi

$$M=\frac{m\cdot(100-a)}{100-b}$$

ga teng bo'lgan, demak, uzumning massasi

$$m-M=\frac{m\cdot(a-b)}{100-b}$$

qadar kamaygan, bu esa dastlabki massaning

$$100\cdot\frac{m-M}{m}=\frac{100\cdot(a-b)}{100-b}\%$$

ini tashkil qiladi.

Mana shu formula bo'yicha mahsulotlarni saqlashdagi kamayish miqdori aniqlanadi.

## 4. Mustaqil echish uchun masalalar.

1. Narxi 6800 so'm bo'lgan buyumning bahosi 20%ga arzonlashgan bo'lsa, uning narxi qanchaga kamaygan bo'ladi?

2. Narxi 8000 so'mlik buyumga 7% soliq solindi. Buyumning to'la bahosi qancha?

3. Siz buyum narxiga soliqni qo'shib, uning to'la narxini topmoqchisiz deylik. Bu holda buyum narxini qanday songa ko'paytirish kerak, agar soliq:

a) 7%, b) 8%, c)5,5% bo'lsa?

4. Siz buyumning yangi narxini topmoqchisiz. Bu holda dastlabki narxni qanday songa ko'paytirish kerak, agar buyum:

a) 2%, b)10%, c)15% arzonlashgan bo'lsa?

**Ko'rsatma:** Bu erda sotishga soliq qo'yilmaydi deb olish kerak.

5. Siz buyumning arzonlashganini va soliqni hisobga olgan holda uning yangi narxini topmoqchisiz. Bu holda dastlabki narxni qanday songa ko'paytirish kerak, agar:

a) narx 5% tushirildi, soliq esa 8%,

b) narx 10% tushirildi, soliq esa 7%

Bu hollarda buyum narxi oshadimi yoki kamayadimi?

6. Siz ko'rsatma bo'yicha tayyorlanayotgan mahsulotni 50% ko'proq tayyorlamoqchisiz. Agar ko'rsatma $\frac{1}{4}$ stakan o'simlik moyi uchun yozilgan bo'lsa, siz qancha miqdorda o'simlik moyi olishingiz kerak?

7. Miqdorning bir yarim barobari uninig qancha foizini tashkil etadi?

8. Buyumning narxi qaysi holda ko'proq kamayadi: narx 15% tushirilgandami yoki avval 10% tushirilib, so'ngra yangi narx yana 5% tushirilgandami ?

9. Agar yillik daromadga birinchi yili 5% va keyingi ikki yil 10% dan soliq solinsa, u holda 3 yilda hammasi bo'lib qancha soliq solingan bo'ladi?

10. Bir korxonaning akciyalari avval 1000 so'mdan bo'lgan. Yilning oxirida akciyalar narxi 1200 so'm bo'lgan, ikkinchi yilning oxirida 20 000 so'm va uchinchi yildan so'ng 16500 so'mdan baholangan. Akciyalar narxining o'zgarishi % da topilsin.

a) birinchi yilda; b)ikkinchi yilda; c)uchinchi yilda

11. To'rtdan uch miqdor sakkizdan besh miqdordan necha foiz ortiq?

12. Agar siz 250 000 so'mni yiliga 5% foyda (daromad) beradigan jamg'armaga qo'ysangiz, u holda 3 oydagi daromad qancha bo'ladi?

13. Agar bankka qo'yilgan omonat ikki yilda 26% ortgan bo'lsa, u holda yillik o'sish foizi qancha bo'ladi?

14. Agar 50 000 so'mlik omonat yiliga 6% foyda keltirilsa, u holda 10 yildan keyingi omonat miqdori qancha bo'ladi?

15. Yiliga 10% foyda keltiradigan omonatga 250000 so'm qo'yildi. Foyda har yarim yilda bir to'lab boriladi. Omanatning 10 yildan keyingi miqdorini toping.

16. Yiliga 10% foyda keltiradigan omonat kassaga 200 000 so'm qo'yiladi. Agar foyda foizi har kvartalga hisoblansa, u holda omonatning 10 yildan keyingi miqdorini toping.

17. Agar iste'mol buyumining narxi har oyda 1%dan oshib borsa, u holda bir yilda uning narxi necha foizga ortadi?

18. Agar O'zbekiston aholisi yiliga 2% dan oshib borsa, 35 yilda aholi soni necha barobar ko'payishi mumkin?

Ushbu to‘plam Farg‘ona VPKQTMOI qoshidagi Masofadan o‘qitishni hududiy muvofiqlashtirish markazida 25 nusxada chop etildi hamda 2014-yil 21-avgust kuni Qo‘shtepa tumanida o‘tkazilgan Xalq ta’limi xodimlarining an’anaviy Avgust kengashida viloyatdagi barcha Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish tuman, shahar bo‘limlariga yetkazildi.